

TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

METODIKA

METHODICS

2021 Vol. 1(4)

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

O'ZBEKISTON

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

METODIKA

METHODICS

2021 Vol. 1(4)

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Laylo Raupova

Bosh muharrir o‘rinbosarlari: Marg‘uba Abdullayeva
Ilhom Aslonov
Shohruh Abdiraimov

Mas‘ul kotib: Klaraxon Mavlonova

Tahrir kengashi

Nusratulla Jumaxo‘ja, Roza Niyozmetova, Xurshida Hamroqulova, Olimjon Qayumov, Hoshimjon Ahmedov, Gulnoza Jo‘rayeva, Tursunoy Yusupova, Mo‘minjon Turdibekov, Vera Muxamedjanova, Tursun Choriyev, G‘ofir Hamroyev, Saodat Kambarova, Damigul Arapbayeva, Vahob Sattorov, Ibodulla Uzoqov.

Jurnal haqida ma'lumot

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san‘at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o‘rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g‘oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozil-gan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e‘lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“Metodika” – Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnalining metodika yo‘nalishidagi seriyasi bo‘lib, yilda ikki marta e‘lon qilinadi. “Metodika” seriyasida professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning til va adabiyot o‘qitish, ta‘lim va tarbiya nazariyasi, pedagogika, psixologiya yo‘nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Metodika” seriyasi 2021-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Laylo Raupova
Deputy Editors in Chief: Marguba Abdullaeva
Ilhom Aslonov
Shohruh Abdiraimov
Executive secretary: Klarakhon Mavlonova

Editorial Committee

Nusratulla Jumakhuja, Roza Niyozmetova, Khurshida Hamroqulova, Olimjan Kayumov, Hoshimjon Ahmedov, Gulnoza Juraeva, Tursunoy Yusupova, Mo'minjon Turdibekov, Vera Mukhamedjanova, Tursun Choriev, Gofir Hamroev, Saodat Kambarova, Damigul Arapbaeva, Vahob Sattorov, Ibodulla Uzoqov.

Journal information

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

The "**Methodics**" Higher Attestation Commission is a methodical series of the journal Uzbekistan: Language and Culture in the list of scientific publications, published twice a year. The "Methodics" series publishes scientific articles of professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, masters in the field of language and literature teaching, theory of education, pedagogy, psychology.

The "Methodics" series was launched in december 2021.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Metodika

Qozoqboy Yo'ldosh

Masofaviy pedagogika: ta'lim, o'qitish va tarbiya.....6

Qunduzxon Husanboyeva

Sun'iy intellekt va adabiy ta'lim.....15

Roza Niyozmetova

O'zbek tili darslari uchun yangi o'zbek adabiyotidan asar tanlash.....30

Laylo Raupova

Dialogik diskursdagi qo'shma gaplarning semantik xususiyatlari.....49

Вера Мухамеджанова

Дискриминация женщин – преступление против жизни.....61

Tursunay Yusupova

O'quvchilarda inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishiga doir bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish74

Ilhom Aslonov

"Boburnoma" da temuriy malikalar obrazlarining badiiy psixologik tasviri.....84

Shohrux Abdurahim

Ona tili va adabiyot fanlari o'qituvchilarining badiiy matnni o'qib tushunish malakasini baholash.....94

Dildora To'rayeva

Shaxsiy yozishmalar lingvistik ekspertizasi.....102

Farida Saidova

O'zbek tilshunosligida leksik sinonimlarning leksikografik talqini muammosi.....115

Bekzod Farmonov

O'zbek tilidagi relyefonimlarning asar va qissalarda inglizcha tarjimasini.....128

CONTENT

Methodics

Kozokboy Yo'ldosh

Distance pedagogy: education, teaching and upbringing.....6

Kunduzkhon Husanboeva

Artificial intelligence and literary education15

Roza Niyozmetova

A selection of works from new Uzbek literature for Uzbek
language lessons: problems and solutions.....30

Laylo Raupova

Semantic features of compound sentences in dialogic discourse.....49

Vera Mukhamedjanova

Develop students' knowledge, skills and competencies in the
context of logical essays.....61

Tursunay Yusupova

Develop students' knowledge, skills and competencies in the
context of logical essays.....74

Ilhom Aslonov

Images of Timurid princesses in "Boburnoma" Artistic
psychological image84

Shohrukh Abdurahim

Assess the ability of native language and literature teachers
to read and comprehend a literary text.....94

Dildora Turayeva

Linguistic expertise of personal correspondence.....101

Farida Saidova

The problem of lexicographic interpretation of lexical
synonyms in Uzbek linguistics115

Bekzod Farmonov

English translation of Uzbek rhotonemes in works and
short stories.....128

Ona tili va adabiyot fanlari o'qituvchilarining badiiy matnni o'qib tushunish malakasini baholash

Shohruh Abdurahim¹

Abstrakt

Maqolada ona tili va adabiyot fanlari o'qituvchilarining badiiy matnni o'qib tushunish ko'nikmasini baholash mazmunini aniqlash, vositalarini belgilash, turli uslubdagi topshiriqlardan foydalanish, shuningdek, ishlab chiqilgan topshiriqlar orqali ona tili va adabiyot fanlari o'qituvchilarining badiiy matnni tushunishini tekshirish, natijalar orqali ularning badiiy matnni tushunish darajasini tashxislash, shu bilan birga, ularda badiiy matnni tushunish ko'nikmasini rivojlantirish yuzasidan nazariy qarashlar hamda taklif va tavsiyalar berilgan. Tadqiqotni amalga oshirishda eksperiment o'tkazish, kuzatish, tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik tahlil qilish metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar. *O'qib tushunish, o'qituvchi, badiiy matn, baholash, test topshiriqlari, PISA, PIRLS.*

Kirish

Ma'lumki, ona tili va adabiyot ta'limida o'qituvchilar o'quvchilarning nutqiy va til va adabiyotga oid kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ularda matnni o'qib tushunish, o'zgaralar nutqini nutq vaziyatiga monand tushunish hamda o'z fikrini nutq vaziyati va qabul qiluvchiga mos tarzda yozma va og'zaki tarzda ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi, rivojlantiradi. Bu uzoq vaqt talab etadigan murakkab jarayon hisoblanadi. Shuni ham alohida ta'kidlashimiz kerakki, so'nggi o'n besh yillikda ona tili va adabiyot ta'limida asosiy maqsad qolib, o'quvchida faqat fanga xos sof nazariy ko'nikmalarni rivojlantirishga, xususan, ona tili ta'limida nutq parchasini sof lingvistik tahlil qilish, shuningdek, adabiyot ta'limida yozuvchining avtobiografiyasini o'rgatish, faktlarni yodlatishga urg'u berildi. Bu esa ona tili va adabiyot ta'limi maqsadidan uzoqlashishga,

¹ *Abdiraimov Shohruh Samad o'g'li* - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "O'zbek tili va adabiyotini o'qitish" fakulteti "Lingvodidaktika" kafedrasini mudiri v.b.

E-pochta: www.samshab@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-2055-1507

Iqtibos uchun: Abdiraimov, Sh. 2021. "Ona tili va adabiyot fanlari o'qituvchilarining badiiy matnni o'qib tushunish malakasini baholash". O'zbekiston: til va madaniyat 1(4): 94-101.

o'quvchilarning savod darajasini tushib ketishiga olib keldi. Shuning uchun ham, bizningcha, avvalo, dars beruvchi – o'qituvchida qanday ko'nikmalar bo'lishi kerakligini ilmiy tahlil qilib aniqlab olishimiz kerak.

Adabiyotlar tahlili

Jahon til o'qitish metodikasida matnni o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish hamda o'qish savodxonligini baholash yuzasidan J.Charles Alderson [Alderson 2000], L.F.Bachman [Bachman 1995, 398], Juliye Sugarman va Lesliye Villeges [Sugarman J., Villeges 2000], Shihab Jimaa kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan, muayyan xulosalarga kelgan.

Yurtimizda esa M.Yo'ldoshev [Yo'ldoshev 2008], I.A.Azimova [Azimova 2019, 215–224], J.Lapasov [Lapasov 1995, 89] K.M.Mavlonova [Mavlonova 2016, 52–54], G.A.Asilovalarning tadqiqotlarida ham matnni tushunish va test topshiriqlaridan foydalanish yuzasidan nazariy qarashlar aks etadi. Ayniqsa, A.Ismoilov [Ismoilov 2019, 92] va boshqalar tomonidan nashr etilgan “Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash” qo'llanmasida o'qib tushunish malakasini baholash mazmuni va metodikasi yuzasidan ahamiyatli xulosalar qayd etilgan. Ushbu tadqiqotlarga tayanib o'quvchida tushunishni shakllantiradigan o'qituvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini baholash va rivojlantirish yuzasidan tajribaviy tadqiqotni amalga oshirdik.

Tadqiqot metodologiyasi, tahlili hamda natijalari

Tajribalarimiz asosida quyidagi savollarga javob topishga harakat qildik. O'qituvchilarda matnni tushunish ko'nikmasi qay darajada rivojlangan? O'qituvchilarda badiiy matnni tushunishga doir qanday ko'nikmalarni rivojlantirish kerak? Ushbu savolga javob topish va o'qituvchilarning badiiy matnni tushunish darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov o'tkazdik.

Tajriba-sinovni o'tkazishdan oldin o'qituvchilarning badiiy matnni o'qib tushunishini tekshirish uchun badiiy matnni tushunish yuzasidan keltirilgan nazariy qarashlar asosida indikatorlar – konstruktarni belgilab oldik hamda mazkur xususiyatlarni tekshirish uchun mumtoz va zamonaviy adabiyotga oid badiiy matnlar asosida test topshiriqlarni ishlab chiqdik.

Badiiy matnni o'quvchiga tushuntira olishi hamda o'qituvchining o'zi tushuna olishi nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda quyidagicha konstruktarni belgiladik.

1. Mumtoz adabiyotni tushunish konstruktleri:

- 1.1. Mumtoz so'z ma'nosini tushunish.
- 1.2. Mumtoz she'riy parchaning misrasi ma'nosi tushunish.
- 1.3. Mumtoz parchaning umumiy mazmuni anglash.
- 1.4. Mumtoz parchani tushunib, badiiy tahlil qilish.

2. Zamonaviy adabiyot namunasini tushunish konstruktleri:

2.1. Zamonaviy adabiyot namunasida qo'llangan leksik birlikning ko'chma ma'nosini tushunish.

2.2. Zamonaviy adabiyot namunasida qo'llangan sintaktik birlikning vazifasini tushunish.

2.3. Zamonaviy adabiyot namunasida ochiq ifodalangan ma'lumotlarni anglash.

2.3. Zamonaviy adabiyot namunasida yashirin ifodalangan ma'lumotlarni idrok etish.

2.4. Zamonaviy adabiyot namunasidagi orazlarga tavsif berish.


2.6. Zamonaviy adabiyot namunasi qismlarining mazmunini tushunish.

2.5. Zamonaviy adabiyot namunasining umumiy mazmunini anglash.

2.7. Zamonaviy adabiyot namunasida keltirilgan voqealar, hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatini fahmlash.

2.8. Zamonaviy adabiyot namunasining asosiy g'oyasini anglash.

Ushbu indikatorlar asosida ishonchliligi va validligi aprobat-siyada isbotlangan 7 ta topshiriq ishlab chiqildi va Sirdaryo viloyatida 50 nafar o'qituvchi ishtirokida tajriba-sinovdan o'tkazildi. Tajriba natijalari quyidagi diagrammada aks etgan.



1-rasm. Topshiriqlar bo'yicha natijalar

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarimizning qariyb 40 %i mumtoz adabiyot namunalarini tushunishga oid topshiriqlarni hal eta olmagan, aniqrog'i, o'qituvchilar mumtoz parchani tushunmagan. Quyida har bir topshiriq natijalarini tahlil qilamiz. O'qituvchining *mumtoz so'z ma'nosini tushunishini* tekshiradigan quyidagi topshiriqni 54% o'qituvchi to'g'ri topa olgan.

1. *She'rda ajratib ko'rsatilgan "xudroyliq" so'zining matndagi ma'nosini toping.*

Javob: _____

Bu esa mumtoz parchalardagi so'zlarning aksariyatini o'qituvchilar tushunmasligini ko'rsatadi.

Shuningdek, ushbu tuyuqning *umumiy mazmunini anglashi*ni tekshiradigan quyidagi topshiriqni esa ishtirokchilarning 66 %i to'g'ri topa olgan.

2. *Tuyuq mazmuniga MOS BO'LMAGAN hukmni aniqlang.*

A. *U go'zalga "bormagin" deb bir necha bor aytdim*

B. *U oxir-oqibat yor oldiga bormaydigan bo'ldi.*

D. *U o'zi aytganidan qaytmadi, bilganini qildi.*

E. *Bunday holatdan aql ham juda hayratda qoldi.*

Bu esa mumtoz so'z ma'nosidan ko'ra, mumtoz parchaning umumiy ma'nosini keltirib chiqarish, anglash o'qituvchilar uchun osonroq ekanligini ko'rsatadi.

Quyidagi topshiriq orqali esa mumtoz parchani idrok qilib, uni badiiy tahlil qila olish ko'nikmasini tekshirildi.

3. *Berilgan she'riy parchaning badiiy tahliliga oid to'g'ri hukmni aniqlang.*

A. *Ushbu she'rda ichki qofiyadan foydalanilgan.*

B. *Ushbu she'rda tajnis, talmeh san'atlaridan foydalanilgan.*

D. *Ushbu she'rda misralar **aaaa** tarzida qofiyalangan.*

E. *Ushbu she'rda tazod, tashxis san'atlaridan foydalanilgan.*

Ushbu topshiriqni o'qituvchilarning 50 %i bajara olgan, badiiy tahlil eta olgan. Umuman olganda, maktablarda dars berayotgan ona tili va adabiyot o'qituvchilarning yarmi mumtoz she'riy parchani badiiy jihatdan tahlil eta olmaydi.

O'qituvchilarning zamonaviy badiiy matnni tushunishi, ulardagi voqelikni fahmlashi, idrok qilishini ham "Temir xotin" dramasidan olingan parcha asosida tuzilgan test topshiriqlari yordamida tekshirib ko'rdik. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, o'rtacha 25 % o'qituvchi zamonaviy adabiyot namunasini tahlil eta olmagan, tushungan.

Quyidagi har bir topshiriq natijasini tahlil etamiz.

O'qituvchilar zamonaviy adabiyot namunasida qo'llangan leksik birlikning ko'chma ma'nosini tushunishini quyidagi topshiriq yordamida tekshirdik.

4. *Parchada ajratib ko'rsatilgan "savdo" so'zning matndagi ma'nosini toping.*

- A. *Inson hayotida uchraydigan mushkul holat*
- B. *Biror narsa dardida o'ta berilish holati*
- D. *Biror narsa olish uchun oldi-berdi qilish holati*
- E. *Bajarilishi kerak bo'lgan topshiriq, yumush*

Ushbu topshiriqni ishtirokchilarning 50 %i hal eta olgan. Matnda qo'llangan ko'chma ma'noda ishlatilgan birliklarning ma'nosini o'qituvchilarning yarmi tushunmagan. Bu esa o'qituvchilar badiiy parchadagi ko'chimlar, ramzlar, simvollarni fahmlamaydi, o'qituvchiga ham yetkazib bera olmaydi, degan xulosaga kelishimiz uchun asos bo'ladi.

Keyingi topshiriq yordamida o'qituvchi matnda aks etgan voqealar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatini tushunishi tekshirildi.

5. *Olimjonning fikricha, Alomat kuyib qolishining asosiy sababi nima?*

- A. *Asli nosoz bo'lgani*
- B. *Tinim bilmay ishlatilgani*
- D. *Qishloq yerlari notekisligi*
- E. *Inson mehnatiga moslashtirilmagani*

Mazkur topshiriqni ham test topshiruvchilarning 54 %i to'g'ri topa olgan. Bu esa o'qituvchilarda "sabab-oqibat" falsafiy qonuniyatini to'la anglay olmasligini ifoda etmoqda.

Navbatdagi topshiriq orqali zamonaviy adabiyot namunasida qo'llangan sintaktik birlikning ma'nosi va vazifasini tushunish, fahlash ko'nikmasini tekshirildi.

6. *Qo'chqor tilidan ishlatilgan qaysi jumla orqali uning sodda, ko'ngilchan inson ekanligi ko'rsatilgan?*

- A. *Hech kim mehnatdan o'lmaydi, Olimtoy...*
- B. *Menmi? Xudo bilan gaplashyapman.*
- D. *Voy, bechora-yey... Umri qisqa ekan.*
- E. *Ey, esi yo'q bandam, -dedi, -shukronalar keltir...*

Natija shuni ko'rsatdiki, ishtirokchilarning 64 % i ushbu topshiriqni to'g'ri hal eta olgan. Bu esa o'qituvchilarning akasariyat qismi matndagi elementlarning mazmuni, matndagi o'rni va vazifasini idrok qila oladi.

So'nggi topshirig'imizda ishtirokchilar matnning umumiy mazmunini anglashi, matnning asosiy g'oyasini topa olishi tekshiril-

gan.

7. Ushbu parchaning asosiy g'oyasini aniqlang.


A. Kashfiyotlar johillar tomonidan barbod etiladi.

B. Robotlar inson qila olmaydigan ishlarni ham bajara oladi.

C. O'zbek ayolining qadriga yetish, uni e'zozlash kerak.

E. Shoshma-shosharlik bilan qilingan kashfiyotlar natija bermaydi

Sinovimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, ishtirokchilarning 66 %i ushbu topshiriqni to'g'ri bajara olgan. Bu esa o'qituvchilarning muayyan qismida matnning umumiy mazmunini anglash, matnning asosiy g'oyasini idrok etish ko'nikmalari mavjud emas. Umumiy natijalar esa quyidagicha:



Umumiy natijalarni tahlil qilsak, "a'lo" (86–100) natija ko'rsatganlar umumiy ishtirokchilarning 19 % ini, "yaxshi" (71-85) natija ko'rsatganlar 46 % ini, "qoniqarli" (56–70) natija ko'rsatganlar 23 % ini, "qoniqarsiz"(1–55) natija ko'rsatganlar 12 % ini tashkil qilmoqda.

Xulosa va takliflar

Tadqiqotimiz asosida quyidagicha xulosaga keldik, ona tili va adabiyot fanlari o'qituvchilarining aksariyati badiiy matnni o'qib, uni yetarli darajada tushunmaydi, badiiy jihatdan tahlil eta olmaydi. Bu esa ular o'quvchida badiiy asarni tushunish ko'nikmasini yetarlicha shakllantira olmasligini ko'rsatadi. Shuningdek, biz PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash monitoring tizimlarida o'qish savodxonligi bo'yicha yuqori natijaga erishmoqchi bo'lsak, avvalo, o'quvchida o'qib tushunishni rivojlantira oladigan pedagoglarni yetishtirib chiqarishimiz, ularning malakasini oshirishimiz lozim. Buning uchun

o'qituvchilar malaka oshirish markazlarida hamda pedagoglarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida matnni tushunish va tushuntira olishga qaratilgan fanlarning dars salmog'ini oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman, tadqiqotimiz natijalari asosida o'qituvchilarda badiiy matnni o'quvchiga yetkazib bera olishi uchun *mumtoz so'z ma'nosini tushunish; mumtoz she'riy parchaning misrasi ma'nosi tushunish; mumtoz parchaning umumiy mazmuni anglash; mumtoz parchani tushunib, badiiy tahlil qilish; zamonaviy adabiyot namunasida qo'llangan leksik birlikning ko'chma ma'nosini tushunish; zamonaviy adabiyot namunasida qo'llangan sintaktik birlikning vazifasini tushunish; zamonaviy adabiyot namunasida ochiq ifodalangan ma'lumotlarni anglash; zamonaviy adabiyot namunasida yashirin ifodalangan ma'lumotlarni idrok etish; zamonaviy adabiyot namunasidagi orazlarga tavsif berish; zamonaviy adabiyot namunasi qismlarining mazmunini tushunish; zamonaviy adabiyot namunasining umumiy mazmunini anglash; zamonaviy adabiyot namunasida keltirilgan voqealar, hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatini fahmlash; zamonaviy adabiyot namunasining asosiy g'oyasini anglash* kabi ko'nikmalarni rivojlantirishini tavsiya etamiz.

Adabiyotlar

- Abdiraimov, Sh. 2021. Ona tili ta'limida badiiy matnni o'qib tushunish malakasini baholash // *Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue. №5*
- Azimova, I. 2019. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. *Global ta'lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent. PRINT.*
- Ismailov, A. v.b. 2019. *Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash.* Toshkent: Sharq.
- Charles, J. Alderson. 2000. *Assessing Reading.* Cambridge University Press.
- Lapasov, J. 1995. *Badiiy matn va lisoniy tahlil.* Toshkent: O'qituvchi.
- Yo'ldoshev, M. 2008. *Badiiy matn lingvopoetikasi.* Toshkent: Fan.
- Мавлонова, К. 2016. Восприятие художественного текста на уроках родного языка // *The Way of Science – International scientific journal – Volgograd. № 6.*
- Bachman, L.F. *Fundamental considerations in language testing.* Oxford University Press, 1995.
- Julie Sugarman va Leslie Villeges. *Native Language Assessments for K-12 English Learners JUNE 2020* https://www.migrationpolicy.org/sites/default/files/publications/MPI-native-lang-assessments_FINAL.pdf

Assess the ability of native language and literature teachers to read and comprehend a literary text

Shohrukh Abdurahim¹

Abstract

The article defines the content of assessment of the ability of native language and literature teachers to read and understand the literary text, defines the tools, the use of different styles of tasks, as well as tests the comprehension of the literary text by teachers of the native language and literature. diagnostics, as well as theoretical views and suggestions and recommendations on the development of the ability to understand the literary text. The research was carried out using the methods of conducting experiments, mathematical and statistical analysis of experimental results, observation.

Key words. *Reading comprehension, teacher, literary text, assessment, test assignments, PISA, PIRLS.*

References

- Abdiraimov, Sh. 2021. Ona tili ta'limida badiiy matni o'qib tushunish malakasini baholash // Jamiyat va innovatsiyalar – Obshchestvo i innovatsii – Society and innovations Special Issue. №5
- Azimova, I. 2019. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Global ta'lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent. PRINT.
- Ismailov, A. v.b. 2019. *Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash.* Toshkent: Sharq.
- Charles, J. Alderson. 2000. *Assessing Reading.* Cambridge University Press.
- Lapasov, J. 1995. *Badiiy matn va lisoniy tahlil.* Toshkent: O'qituvchi.
- Yo'ldoshev, M. 2008. *Badiiy matn lingvopoetikasi.* Toshkent: Fan.
- Mavlonova, K. 2016. Vospriyatiye xudojestvennogo teksta na urokax rodnogo yazika // The Way of Science – International scientific journal – Volgograd. № 6.
- Bachman, L.F. *Fundamental considerations in language testing.* Oxford University Press, 1995.
- Julie Sugarman va Leslie Villeges. *Native Language Assessments for K-12 English Learners JUNE 2020* https://www.migrationpolicy.org/sites/default/files/publications/MPI-native-lang-assessments_FINAL.pdf.

¹ *Abdiraimov Shohruh Samad oglu* – Head of the Department of Linguodidactics, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

E-pochta: www.samshab@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-2055-1507

For citation: Abdiraimov, Sh. 2021. "Assess the ability of native language and literature teachers to read and comprehend a literary text". Uzbekistan: language and culture 1(4): 94-101.

Shaxsiy yozishmalar lingvistik ekspertizasi

To'rayeva Dildora¹

Abstrakt

Maqolada shaxsiy yozishma tushunchasi, turlari va globallashuv davridagi variantlarini xususida mulohazalar olib borilgan. Yozma matnlarning tadqiqotchi olimlar tomonidan o'rganilishi, tasnifi va og'zaki nutqdan farqli jihatlari ilmiy asoslangan. Shuningdek, shaxsiy yozishmalarining stilistik xususiyatlari va ularning lingvistik ekspertizadagi amaliy ahamiyati haqida bayon etilgan. Yozma matnlarda lingvistik ekspertiza tahlilini olib borish tamoyillari, usullari va uning yuristlingvistikadagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *shaxsiy yozishmalar, epistolar matn, epistolar matn turlari, shaxsiy yozishma tili, matn tasnifi, stilistika, nutq uslublari, lingvistik ekspertiza, lingvistik ekspertiza usullari.*

Kirish

Bugungi kunda jahon ilm-fan taraqqiyotida turli sohalarining integratsiyalashuvi kuchaydi. Tildan amaliy foydalanishning samaradorligini oshirishga mo'ljallangan muloqot madaniyati, psixolingvistika, yuristlingvistika, neyrolingvistika, lingvistik ekspertiza kabi qator tarmoqlar yuzaga keldi. Bu esa lisoniy imkoniyatlardan amaliy foydalanishga, til birliklarining nutqiy voqelanishi hamda inson ma'naviyati, sha'ni, obro'-e'tiboriga ta'sir kuchini belgilashga xizmat qiladi. Pirovard masalasida inson omili turadigan xoh psixologik, xoh huquq, xoh sotsial soha bo'lsinki, bu boradagi ilmiy tadqiqot natijalari jamiyat hayotini yaxshilashga qaratilgan. Zotan, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, davlat tiliga bo'lgan yuksak e'tiborni biz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak.

Dunyo tilshunosligida yuridik lingvistika atamasi XX asrning ikkinchi yarmida keng qo'llanila boshlandi. Bu soha rus, ingliz tilshunosligida taraqqiyot darajasiga yetgan bo'lib, 90-yillarda uning

¹To'rayeva Dildora Anvarovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi.

E-pochta: dildoratorayeva9@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-2595-3516

Iqtibos uchun: To'rayeva, D. 2021. "Shaxsiy yozishmalar lingvistik ekspertizasi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1(4): 102-114.

tarkibiy qismi sifatida lingvistik ekspertiza yo'nalishi shakllandi. Lingvistik ekspertiza huquq va tilshunoslik sohalarining kesishuvi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, inson sha'ni, qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi birliklarni til doirasida o'rganuvchi tilshunoslikning amaliy yo'nalishidir. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalayotgan muallifi noma'lum bo'lgan va muammoli deb topilgan diniy-ekstremizm, terrorism, turli yo'nalishdagi tahdid va da'vat xarakteridagi, insoniyat ma'naviy ongiga salbiy ta'sir etuvchi yozishmalarning lingvistik ekspertizasi bo'yicha dunyo tilshunosligida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu anonim yozishmalar muallifini aniqlash, matnda plagiatlik holatlarini tekshirish, savdo belgisi, korxonalar nomlaridagi ko'chirmachilikka oydinlik kiritish kabi muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimizda sud-huquq tizimiga oid qator tadqiqotlar mavjud. Ularning aksariyati sud tili, huquq tizimiga oid atamalar kabi mavzular doirasidir. Ammo kun sayin sud-huquq tizimidagi munozaralarga sabab bo'luvchi muammoli matnlar, anonim yozishmalarning lingvistik tahlili dolzarb masalaga aylanmoqda. Bunday yozishmalarni xatshunoslik ekspertizasi, psixologik ekspertiza kabi qator sohalar tahlilga tortishdi. Ammo muammoning to'la va izchil yechimiga ehtiyoj sezila boshladi. Ya'ni inson qadr-qimmatini, obro'yi va nufuziga ta'sir etuvchi; tahqirlovchi; tahdid qiluvchi; oilasi, dini, millatiga qarshi kurashishga da'vat etuvchi kabi munosabatga egayozishmalar muammoli obyektga aylanmoqda. Sud-huquq tizimida shu kabi qator muammolarni hal etishda tilshunoslik va huquqshunoslik fanlarining ilmiy-nazariy yechimlariga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Sud-huquq sohasidagi jinoyat turlaridan biri bo'lmish nutqiy nizolar o'zining tabiati bo'yicha nutqiy jinoyatdir, ularning boshqa jinoyatlardan farqi shundaki, ularda jinoyat quroli sifatida til chiqmoqda, bu esa kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shunday paytda huquqshunoslik sohasida to'la, mustahkam bilimga ega tilshunosga talab ortadi. Ana shunday muammoli shaxsiy yozishmalar yoki anonim xatlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish masalaga ancha oydinlik kiritadi. Ya'ni shaxsiy yozishmalardagi har bir jumlaning leksik-semantik tahlili, psixologik ta'siri, pragmatik xosligini aniqlash va ularning inson sha'ni, qadr-qimmatiga daxldorligini o'rganish kabi tahlillar sud tizimidagi muammoli vaziyatlar yechimiga katta yordam beradi. Shaxsiy yozishmalarda nutqiy birliklarning semantik-sintaktik xususiyatlariga ko'ra tahlilni amalga oshirish, shu orqali matn

muallifini aniqlash yoki leksik birliklarning semantik darajalarini belgilash va uning inson haq-huquqlariga ta'sirini lingvistik jihatdan asoslash o'zbek tilshunosligi uchun yangi tarmoq hisoblanadi. Bu sud ekspertiza jarayoni uchun ham yangilik bo'lib, endilikda matn tahlili yozuvning shakliga qarab emas, balki nutqiy hosilalarning semantik-sintaktik xususiyatlari, nutq vaziyatiga muvofiqligi va birliklarning emotsional ta'sir kuchi kabi holatlarni lingvistik tahlil qilish orqali amalga oshadi. Demak, bu sohada nazariy asoslar yetarlicha, ammo unga amaliy jihatdan yondashish tilshunos-ekspert oldidagi ustuvor vazifadir. Shu asosda yuridik lingvistikaning tarmog'i bo'lmish lingvistik ekspertizani tilshunos ma'lum bir xonada nazariy asoslar bilan emas, balki xalq orasiga kirib, OAV, reklama matnlari, savdo markalari, korrupsiya, ekstremizm, da'vat, tahdid yo'nalishidagi turli matnlarning lingvistik tahlilini olib borishi, uni to'la tushinishi, anglashi va aslashi zarur. O'zbek tilshunosligida bu sohada bir nechta tadqiqotlar olib borilyapti, ularning aksariyati huquqshunoslik bilan bog'liq. Bizningcha, amaliy tilshunoslik tarmog'i sifatida shaxsiy yozishmalarda lingvistik ekspertizani amalga oshirish bugungi rivojlanayotgan asrimiz uchun dolzarb mavzulardan biridir.

Asosiy qism

Hozirgi davrda matn tilshunosligi va aloqa nazariyasi, qolaversa, sud-huquq tizimidagi lingvistik ekspertizaning eng asosiy obyektlaridan biri shaxsiy yozishmalar hisoblanadi. Shaxsiy yozuv – biror-bir narsani o'ylash yoki shaxsiy tajribani boshqalar bilan baham ko'rish zarurati tug'ilganda foydalaniladigan vosita(<https://koreajob.ru/uz/sekrety-interesnyh-istoricheskikh-pisem-istoriya-pisem-interesnye-fakty/>). Shaxsiy yozishmalar tushunchasi qay mavzu va yo'nalishda bo'lishidan qat'iy nazar insonning individual yondashib amalga oshirgan harakatidir. Shaxsiy yozishmalar bir tomonlama va ikki tomonlama munosabatlarda bo'lishi mumkin. Xabar yo'llovchi qabul qiluvchisi aniq bo'lgan shaxsiy yozishmalar – ikki tomonlama yozishmalar sanaladi. Ammo xabar yo'llovchi aniq-u qabul qiluvchi noaniq yoki xabar yo'llovchi noaniq-u qabul qiluvchi aniq bo'lgan bir tomonlama munosabatdagi shaxsiy yozishmalar ham mavjud. Masalan, biror shaxs boshqa birovning o'limiga sababchi bo'lib qolishi va uning nomidan marhumning o'zi aybdorligi xususida ma'lumot qoldirishi mumkin. Bunda yozishma ijrochisi aniq, ammo qabul qiluvchilar marhumning oilasi, qolaversa, fuqarolar huquqini himoya qiluvchi davlat tashkilotlaridir.

Shaxsiy yozishma tushunchasi faqatgina qo'lyozma tarzidagi maktublardan, yoki elektron tarzidagi SMS, email va ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalardan iborat emas, balki audio va video yozishmalar ham uning tarkibiga kiradi. Bu borada Moskva yuridik instituti olimi O.Y.Antonov shaxsiy yozishmalarning lingvistik ekspertizasini tadqiq etgan va ularni quyidagi turlarga ajratgan [Антонов, 2018, 5–11]:

- 1) maktub shaklidagi shaxsiy yozishmalar;
- 2) SMS va ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy yozishmalar;
- 3) audio tarzidagi shaxsiy yozishmalar;
- 4) video shaklidagi shaxsiy yozishmalar.

Shaxsiy yozishmalarning birinchi turi maktub shaklida bo'lib, uning rivojlanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Maktublar va pochta xizmati haqidagi dastlabki ma'lumotlar qadimgi Yunonistondagi Ossuriya va Bobil davlatlari bilan bog'liq. Ossuriyaliklar miloddan avvalgi 3-ming yillikdayoq konvert sifatida loydan foydalanishgan. Avvalo, xat matni loy qatlami bilan qoplangan va ustiga qabul qiluvchining manzili yozilgan. Keyin planshet shaklidagi loydan yasalgan konvertlar ichidagi xatning maxsus ipi yoqilgan va uloqtirilgan. Xat manziliga yetgach, qabul qiluvchilar qotirilgan loyli konvertni bo'laklab, xatni o'qib chiqqan [<http://srttdshi.ru/uz/fizika/osobennosti-gostinic-i-pochtovoi-sluzhby-v-drevnem-rime-istoriya.html>]. Demak, maxsus konvert shaxsiy yozishmaning ham sirliligini ta'minlagan, ham manzilga uloqtirish uchun qulaylik yaratgan. Shuningdek, daraxt po'stlog'i, bambuk, taxta, taroshlangan tosh kabilar-da yozuv amalga oshirilgan. Bugungi kunda yozuv vositasi sifatida qog'oz va elektron gadjetlar xizmat qiladi.

Shu o'rinda lingvistik ekspertiza xatshunoslik ekspertizasining taraqqiyot bosqichi deyish mumkin. Ya'ni xatshunoslik ekspertizasida muammoli hamda anonim yozishmalarning shakliy xususiyatlari: yozuvning dinamikasi, harflarning katta-kichikligi, shakli (burchaksimon, ovalsimon, yotiq, to'g'ri kabi), yozuv vositasining turi, yozuv uslubi, bosim kuchi (yozuv vositasi kuchli bosimda, kuchsiz bosimda amalga oshirilishi) kabilar o'rganiladi [Xolmatova, 2021]. Lingvistik ekspertizada esa muallifi noma'lum bo'lgan, muammoli deb topilgan yozishmalarning mazmuniy xususiyatlariga ko'proq ahamiyat beriladi. Yozishmadagi so'zlarning ma'no darajalari, inson qadr-qimmatiga ta'sir kuchi kabi xususiyatlari o'rganiladi. Bunda matn tarkibiy qismlarini, avvalo, komponentlarga ajratib leksik, grammatik, sintaktik, punktuatsion tomonlari butun-qism munosabati asosida tahlil qilinadi [Kim, 2019, 507–509].

Yozishma butun holatda o'rganiladi, ya'ni umumiy mazmuni, nutq yo'nalishi, tahdid, tahqir bor-yo'qligi kabi qabul qiluvchiga nisbatan munosabatlar umumiy tarzda aniqlab olinadi. So'ng matn qurilishidagi asosiy birliklar farqlanadi, avvalo, ko'zga tashlanadigan jihatlari ajratib olinadi. Masalan, noadabiy leksik, grammatik va fonetik unsurlar bunda muhim belgi vazifasini bajaradi. Saralab olingan birliklarning uslubiy, hududiy, shaxs yoshi va jinsiga ko'ra jihatlari atroflicha tahlil qilinadi. Har ikkala ekspertizaning umumiy tomoni shundan iboratki, tahlil jarayonida dalil sifatida olingan materiallar o'zaro qiyoslash, taqqoslash asosida yakuniy xulosalar hosil qilinadi.

Tadqiqotchi K.Dolinning so'zlariga ko'ra, "xat (nutqning yozma shakli) – yozuvchi tomonidan oldindan o'ylangan, qayta semantik jihatdan sintez qilingan va aytmoqchi bo'lgan fikrining eng yaxshi variantlaridan birini bayon etadigan matni". Yozma nutq tilning qayta ishlangan shakli bo'lib, uning eng kichik tafsilotlarigacha qayta tahrir qilish va qayta yaratish undan keyingina aniq bir xulosaga kelish mumkin bo'lgan jarayon mahsulidir. Shuning uchun ham yozma nutq og'zaki nutqqa nisbatan aniq va tushunarliroqdir. Shaxsiy yozishmalarning lingvistik tahlilida tilshunoslik, sotsiolingvistika, areal lingvistika, lingvistik geografiya, matn tilshunosligi, pragmalingvistika, psixolingvistika bilan bir qatorda psixologiya, biologiya, fizika kabi soha mutaxassislarining xulosalari muhim o'rinda turadi [<https://youtu.be/7HCGob75xGQ>]. Shunday ekan, tahlil jarayonida faqat tilshunos-ekspertning xulosalari bilan chegaralanib qolmay, balki turli soha mutaxassislarining xulosalari bilan umumlashtiriladi. Hech bir tarmoq alohida rivojlanmaganidek, lingvistik ekspertizada turli fanlarning integratsiyalashuv jarayoni aniq xulosa hosil qilishga yordam beradi. Bu lingvistik ekspertizada muallifning temperamenti, psixofiziologik holati, axloqi, ijtimoiy mavqeyi, hududiy mansubligi kabilar haqida ma'lumot olishga yordam beradi, huquqshunosning muammoli yozishmalarlarni ochib berishida ancha qo'l keladi.

Kriminalistikada shunday jihatlar mavjudki, jinoyat sodir etilgan joy va uning turi kabi jarayonlar video tarzida saqlanib qoladi, ammo jinoyatni sodir etgan shaxs xira holda ko'rinadi yoki maxsus niqobda harakatni amalga oshiradi. Bunday vaziyatda shaxsning nutqiy faoliyatini lingvistik ekspertiza qilish masalaga oydinlik kiritadi. Ovozning tiniqligi, nutqni tashkil etuvchi fonemalar, tezlik va talaffuz nisbiy aniqligi, uzunligi va strukturasi, belgi va so'z hajmi, muayyan so'zdan foydalanish, ijtimoiy vaziyatga ko'ra so'zlardan foydalanish, xususan, jarayon suhbatdoshlarining nutqiy imkoniyati, qobiliyatiga yo'naltirilganligi – bularning barchasi shaxsni tavsiflov-

chi ko'plab kompleks ko'rsatkichlardir. Yuqoridagi fikrga qo'shimcha tarzda E.Sepir yana shunday izoh beradi: insonning barcha xatti-harakatlari nutqida namoyon bo'ladi [Сепир, 1993, 656.]. Ya'ni an'anaviy fonoskopik ekspertizada ovozning tembri, to'lqini, baland-pastligi kabi akustik va artikulyatsiyaviy xususiyatlari o'rganilgan bo'lsa, lingvistik ekspertizada so'z va tovushlarning orfoepik va transkripsion xususiyatlari: tovushning yumshoq-qattiqligi, qisqa-cho'ziqligi, tor-kengligi, lablangan-lablanmaganligi kabi talaffuz belgilari o'rganiladi. Bu yozishma muallifining qay hududga mansubligini aniqlashga yordam beradi. Xuddi shuningdek, audio yozishmalarda ham yuqoridagidek lingvistik tahlil amalga oshiriladi. Zotan, inson har qancha gapirish uslubini o'zgartirishga harakat qilsa ham, baribir individual xususiyatlari uning nutqida element tarzida bo'lsa ham aks etmay qolmaydi.

Lingvistik ekspertizaning an'anaviy sud ekspertizasidan farqi shundaki, nazariy tilshunoslik bilimlarini amalda tatbiq etish asosida matndagi so'zdan tortib tinish belgilarigacha, xoh u dalil matni yozma, xoh og'zaki bo'lsin, tubdan, izchil tahlil qilinadi. Bu matn muallifini aniqlashning eng yaqin taxminlarini berishga yo'l ochadi. Zero, har bir inson harakatda, faoliyatda ekan, har qancha uslubiy xususiyatlarini o'zgartirishga harakat qilsa ham, o'zining individual belgilarini baribir yozishmalarida namoyon qiladi. Bu kichik element bo'lsa ham, tilshunos ekspert uchun asos vazifasini bajaradi. Zotan, kichik elementlar tahlili jamiyatdagi jabrdiyda insonlar taqdirini belgilaga asos bo'lishi mumkin.

Shaxsiy yozishmalarining qo'lyozma, elektron, audio va video shakldagi turlarining o'ziga xos jihatlari ko'ra lingvistik ekspertizani fanlar integratsiyalashuvi tarzida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shaxsiy yozishmalarining shakliy turini aniqlash uning mazmuniy guruhlarini ham o'rganish va tahlilga tortishda asos vazifasini o'taydi. Bu lingvistik ekspertizaning to'laqonli bajarilishiga zamin hozirlaydi.

Shaxsiy yozishmalar tili

Oxirgi o'n yillikda shaxsiy yozishmalar ancha faollashdi. Avvallari shaxsiy yozishmalarining maxfiyligi shariat qoidalari bilan ta'minlangan, insonlar mustahkam axloqiy qoidalar bilan nazorat qilingan bo'lsa, endilikda, har bir kishi o'zini-o'zi nazorat qilishi, tartibga chaqirib turishiga to'g'ri keladi. Ya'ni internetda, jumladan, shaxsiy xabarlarida yozilgan barcha ma'lumotlar osongina ommalashishi mumkin, bu insonning ehtiyotkorligini oshiradi va loqaydlikka bar-

ham berish kabi ijobiy xarakter kasb etadi.

Shaxsiy yozishmalarning shakliy turlari aniqlab olinishi davomida uning ma'noviy xususiyatlari ham oydinlasha boradi. Bu masalada Kemerovo instituti olimi L.G.Kim xolistik usuldagi lingvistik ekspertizani taklif qiladi. Bu usul matnning butun holati, ya'ni umumiy mazmuni, nutq yo'nalishi, da'vat yoki tahqirning mavjudligi kabilar bilan bir qatorda matnning tarkibini tashkil etuvchi eng kichik qismlarigacha o'rganishdir. Bunda matnning umumiy holatidan elementlari va ularning chastotasini taqqoslash orqali muallif haqida xulosa chiqariladi [Turayeva 2021, 268].

Rus olimi A.N. Baranov esa kvazissinonimik tahlil usulini taklif qiladi. Unda butun va qismlarning sinonimligi yuzasidan leksemalarni tahlil qilish orqali matn muallifini aniqlaydi. Masalan, *juda oz, to'satdan, bexosdan, kutilmaganda kabi so'zlar* mazmunan boshqa-boshqa tushunchani ifodalasa-da, ular matn tarkibida kontekstual sinonimlikni hosil qiladi.

Shaxsiy yozishmalarning tili turli yo'nalishda bo'lishi mumkin. Yozishma ijrochisining maqsadini aniqlab olish lingvistik ekspertizaga ancha yordam beradi. Shaxsiy yozishmalar quyidagi ma'noviy turlarga ega [Баранов, 2002, 356]:

- Ekstremistik xarakterdagi shaxsiy yozishmalar;
- Terroristik xarakterdagi shaxsiy yozishmalar;
- Shaxsning obro'yiga putur yetkazish xarakterdagi shaxsiy yozishmalar;
- Yuridik tashkilotning nufuziga salbiy ta'sir o'tkazish xarakterdagi shaxsiy yozishmalar;
- Tahdid, tahqirlash xarakteridagi shaxsiy yozishmalar;
- Da'vat xarakteridagi shaxsiy yozishmalar;
- Jinoyat izini yopish xarakteridagi shaxsiy yozishmalar;
- Korrupsion xarakterdagi shaxsiy yozishmalar;
- Tuhmat xarakteridagi shaxsiy yozishmalar;
- Taklif xarakterdagi shaxsiy yozishmalar;
- Iltimos xarakteridagi shaxsiy yozishmalar.

Shaxsiy yozishmalarning ma'noviy turlarini aniqlash orqali muallifning maqsadi, niyati belgilab olinadi. Bunda yozishmaning haqiqatan ham muammoli, munozarali, bahsli ekanligi ahamiyatlidir. Masalan, hammaga ma'lum bo'lgan axborot haqida xabar berilgan bo'lsa, u hamma uchun ma'lum va maxfiy ma'lumot emas. Bunday vaziyatlarda tarqatuvchi shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Ammo agar ma'lumot jamoa uchun sirli va shaxsiy hayotga taalluqli bo'lsa, (masalan, farzandsiz oilaning qavm-qarindoshiga bildirmagan

holda bola asrab olganligi haqidagi ma'lumot yoki insonlar o'rtasidagi yashirin tarzda olib borilgan romantik munosabatlar) ushbu shaxsiy ma'lumotlar ommaga oshkor qilinsa, ijrochiga nisbatan fuqarolik va jinoiy javobgarlik paydo bo'lishi mumkin [<https://lex.uz/docs/-2307248>].

Shaxsni jamoa oldida obro'sizlantirish, yuridik shaxslarning nufuziga putur yetkazish kabi masalalarning lingvistik tahlilida, nisbatan, Rossiya davlati ancha ilg'or. Rossiya Adliya vazirligining 2006-yil 526.1-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Nutq faoliyati mahsulotlarini o'rganish" ixtisosligi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash dasturi buning yorqin dalilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham bu borada qator huquqiy me'yorlar aks etgan. Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 46-moddasi tibbiy yoki tijorat sirlarini, yozishmalar va boshqa xabarlarining sirlarini, notarial harakatlarni, bank operatsiyalarini va jamg'armalarni, shuningdek, fuqaroga, uning huquqlariga, erkinliklariga va qonuniy manfaatlariga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlar oshkor qilish uchun javobgarlikni belgilaydi. Shuningdek, Jinoyat kodeksining 143-moddasida yozishmalar, telefon orqali muzokaralar, telegraf yoki boshqa xabarlarining sirini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan [<https://lex.uz/docs/111453>]. Ayon bo'ladiki, qonunda faqat daxlsizlik haqida fikr yuritilgan va shu sababli ham sud jarayonida muammoli matn sud-xatshunoslik, psixologik jihatdan keng tahlil qilindi, ammo shaxsiy yozishmalardagi nutqiy hosilalarning lingvistik ekspertizasiga muhtoj ishlar yechimsiz masalaga aylanmoqda.

Antroposentrizm ustunlik qiluvchi tilshunoslik yo'nalishlarida mutaxassis lingvistik nazariyalar tadqiqi ustida emas, balki nutq ijrochilarining shaxsi, manfaati uchun ahamiyatli nutqiy jarayonlar ustida ish olib boradi [Димитрова, 2016, 13]. Shunday yozishmalar borki, shaxs ichida ikkinchi shaxs yashiringan bo'ladi [Weiner, Freedheim, 2003, 491]. Ya'ni birovning o'rnida boshqa birov yozishma olib boradi, yoki elektron gadgetidan foydalanadi va jinoyatni amalga oshirmagan shaxs o'z-o'zidan aybsiz aybdorga aylanib qoladi. Bunday vaziyatda masalaga lingvistik ekspertiza oydinlik kiritadi. O'sha kuni gumonlanuvchi shaxs uchrashgan insonlar haqida ma'lumot yig'iladi va ularning nutqi har tomonlama o'rganiladi. Dalil sifatida olingan nutqiy hosilalar lingvistik jihatdan o'rganiladi hamda yozishmadagi individual xususiyatlar farqlanadi. Bu gumonlanuvchi haqidagi taxminiy xulosalarga ancha aniqlik kiritadi.

Anonim shaxsiy yozishma tahlilida ikki: sifatli va miqdoriy yondashuv mavjud. Sifatli yondashuvda matnni tahlil qilish va izohlash uchun, dastavval, matnning tili, uslubini tavsiflash kerak. Shu orqali matnning xususiyatini aniqlab olish, so'ng ma'lum yozuvchiga xosligini aniqlashdan iborat. Ikkinchi yondashuvda esa matndagi so'zlar, adabiy me'yordan chekinish holatlari va punktuatsion belgilar chastotasini hisoblash orqali miqdoriy yondashuv amalga oshiriladi [Michell 3013, 64]. Aynan, maktub shaklidagi yozishmalar o'z ichki ma'noviy guruhlarga ham bo'linadi. B.Najua matnlarning umumiy tasnifiga asoslanib, xat ko'rinishidagi matnlarining quyidagi subtipalarini ta'kidlaydi:

- 1) informatsion ruhidagi xatlar;
- 2) da'vat ruhidagi xatlar;
- 3) kommunikativ ruhidagi xatlar.

Maktub, har qanday matn kabi nutq muloqotining bir turidir. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotchining fikriga ko'ra, avvalo, matnlarni mazmuniy jihatdan farqlash va undan so'ng uning uslubi va strukturasi e'tibor qaratish lozimligini aytadi. Bu borada Rossiyaning Orlov universiteti olimlari I.V.Popova, L.A.Vlasova shaxsiy yozishmalarining qo'lyozma va SMS-chat turlarining lingvistik ekspertizasini uch bosqichga bo'lishdi. Olim YA.Belchikov ham shunday fikrni bildirdi: "Huquqiy masalalar bo'yicha bahsli matnning lingvistik ekspertizasi –bu to'g'ridan to'g'ri filologiyaning eng qadimgi tarmoqlaridan biri germenevtika bilan aloqador, zero, germenevtikaning markaziy vazifalaridan biri matnni (yozma va og'zaki) talqin qilish va uni tushunishdan iboratdir" [Бельчиков, 2005, 15]. YA. Belchikovning fikriga qo'shilgan holda, olimlar bahsli SMS xabarining lingvistik ekspertiza jarayonini 3 bosqichga ajratishdi:

1) suhbatning semantik bloklarini aniqlash – so'zlovchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi suhbatning mavzusi aniqlanadi. Bunda mavzu markaziy o'rinda bo'lib, suhbatdoshlar bir nechta mavzuda suhbatlashayotgan bo'lsa-da, bir mavzu xususida bir aylana chiziq orqali harakatlanishadi, ya'ni suhbat davomida bir necha bor aynan shu mavzuga qaytib kelishadi. Bu so'zlashuv jarayonining semantik maydonini tashkil qiladi;

2) nutq harakatlarining turlarini aniqlash – axborot berish, ma'lumot so'rash, rag'batlantirish, rozilik, norozilik, kelishmovchiliklarni ifodalash, suhbatdoshga bo'lgan munosabatni ifodalash, his-tuyg'ular kabilar. Matnda suhbat jarayoni xabar, bayonot, izoh, tushuntirish, fikr bildirish, taxmin, ogohlantirish, da'vat kabi nutq harakatlarida amalga oshadi. Bu, albatta, yozma matnlar uchun

xos. Og'zaki, audio, video murojaatlarda esa nutq harakati ekstralingvistik omillarga ko'ra belgilanadi;

3) informatsion komponentlarni aniqlash va tavsiflash – bahsli matnning ichki semantik mohiyatini yuzaga chiqaruvchi lingvistik birliklarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Shaxsiy yozishmaning umumiy strukturasi, so'zlarning to'liq yo to'liq emasligi, haqiqiy mazmuni yashirish uchun qo'llaniladigan adabiy me'yordan chetga chiqqan leksik unsurlarning qo'llanilishi, noadabiy grammatik shakllarning ifodasi kabi lingvistik tahlil olib boriladi.

Xulosa

Olimlar bu usullarni taklif qilar ekan, avvalo, munozarali matn germenevtika bilan hamohanglikda o'rganilishi kerakligini ta'kidlashadi. Huquqiy germenevtika – bu qonuniy matnlarni talqin qilish qoidalari va usullarini o'rganishdir. Uning maqsadi shundaki, ushbu turdagi matnlarni talqin qilish matnlarning asl ma'nosini o'zgartirishi mumkin bo'lgan subyektiv mezonlarga asoslanib amalga oshirilmaydi. Balki, matnning umumiy mavzuviy xarakteri asosida tahlil qilinadi. Buning uchun, albatta, matn turi va uning tili pragmatik jihatdan o'rganiladi. Bu turdagi lingvistik ekspertiza ko'p qirrali germenevtik tadqiqotlar orqali amalga oshiriladi. Ya'ni elektron maktub shaklidagi yozishma ishtirokchilarning ko'pligi, suhbatning murakkabligi, tipik xarakterga ega so'zlar qamrovining kengligi suhbat mavzusi va yo'nalishini aniqlab olishga qiyinchilik tug'dirishi tabiiy. Semantik bloklash, nutq yo'nalishini aniqlash, sifat va miqdor kabi tahlil usullari asosida muammoli xatlarning muallifini topish, suhbat mavzusini aniqlash, suhbat yo'nalishini belgilashda muvaffaqiyatli natijalarni beradi. Sud-huquq idoralarida anonim xatlarning aftorizatsiyasini aniqlash uchun ushbu usullar taklif sifatida beriladi. Bunday serqirra, munozarali matnlar yanada mukammal metodologik tahlillarga muhtoj.

Adabiyotlar

Антонов, О. 2018. *Особенности использования специальные знаний в области лингвистики при изучении электронной переписки в ходе расследования половых преступлений в отношении несовершеннолетних.* Москва.

Xolmatova, G. 2021. Lingvistik ekspertizada grafologiyaning roli // Scientific Journal Impact Factor ISSN 2181-1784 VOL 1, ISSUE 3.

Ким, Л. 2019. Холистические принципы проведения идентификационной автороведческой экспертизы разножанровых